

YOSH OILA MUAMMOLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ismoilova Sevara Ravshanovna

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19451263>

Mazkur maqolada yosh oila muammolarining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Yosh oilaning shakllanish bosqichida uchraydigan iqtisodiy qiyinchiliklar, rol va majburiyatlarning taqsimlanishi, emotsional moslashuv jarayoni hamda muloqot madaniyatining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, farzand tug'ilishi bilan bog'liq psixologik o'zgarishlar va kengaytirilgan oila ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Muammolarni bartaraf etishning samarali yo'llari sifatida o'zaro hurmat, konstruktiv muloqot va psixologik tayyorgarlik muhim omil sifatida ko'rsatib beriladi. Barcha xalqlar uchun yosh oila muammolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hozirgi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy psixologiyada oilaviy hayot muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilmasin, uning hali yetarli darajada o'rganilmagan tomonlari ham yuzaga kelmoqda. Shular jumlasiga yosh oilalarda er-xotin o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishini tadqiq etishni ham kiritish o'rinlidir. Bu borada ko'plab psixolog olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A.V.Shabayeva er-xotinlikda yetakchilikning ijtimoiy-psixologik jihatlari mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, musulmon oilalaridagi nikohning gender modeli er-xotinning oiladagi rolini yuksalib borishiga xizmat qilishini asoslab bergan. Er-xotinning yetakchilik munosabatlari er-xotinning yoshi, jinsi va etnik kelib chiqishi, shuningdek, oilaviy hayotning ijtimoiy-iqtisodiy shartlari bilan belgilanishi izohlangan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan barcha juftliklar to'rt turdagi oilani: an'anaviy, teng, noan'anaviy, ambivalent oilani namoyish etganliklari ko'rsatib o'tilgan.

Yosh oila – ijtimoiy institut sifatida

Yosh oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, undagi barqarorlik ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nikohning dastlabki bosqichi moslashuv va shakllanish davri hisoblanadi.

Ijtimoiy omillar ta'siri

- Iqtisodiy mustaqillik darajasi
- Uy-joy muammosi
- Ish bilan bandlik
- Kengaytirilgan oila bilan munosabatlar

Mazkur omillar yosh oilada psixologik zo'riqish va nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

Psixologik moslashuv jarayoni

Er-xotin xarakter, qadriyat va dunyoqarash jihatidan bir-biriga moslashadi. Ushbu davrda sabr-toqat va o'zaro tushunish muhim ahamiyatga ega.

Emotsional yetuklik va nizolar

Hissiyotlarni boshqarish ko'nikmasi shakllanmagan bo'lsa, rashk, xafagarchilik va tushunmovchiliklar tez-tez yuzaga keladi.

Muloqot madaniyati – barqarorlik omili

Ochiq, hurmatga asoslangan muloqot yosh oiladagi muammolarni hal etishning asosiy vositasidir.

Farzand tug'ilishi bilan bog'liq psixologik o'zgarishlar

Mas'uliyatning ortishi, uyqu rejimining buzilishi va emotsional zo'riqish er-xotin munosabatlariga ta'sir qiladi.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari

- Psixologik tayyorgarlikni oshirish
- Oilaviy maslahat xizmatlaridan foydalanish
- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish
- Moliyaviy rejalashtirish

Muayyan turni tanlashni belgilovchi omillar: yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi va hududiy turar joylari, shuningdek oila yetakchisining shaxsiy xususiyatlari va ularning qiymat yo'nalishi bilan bog'liqdir. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy yetakchilik modeli "nikohda gender assimetriyasini" rad etadi, ayol huquqlari buzilmaydi. Bundan tashqari, oilaviy munosabatlarning bunday modeli gender nizolarini kamaytiradi; ayol va erkak an'anaviy rollarini qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi va shuning uchun oila institutini mustahkamlaydi. A.G.Svyashyennik o'z tadqiqotlarida xristian diniga mansub kishilarning oilaviy munosabatlari madaniyati haqida alohida to'xtalib, yosh kelin-kuyovning oila qurishga va oilaviy munosabatlarga jismoniy, psixologik va ma'naviy-axloqiy jihatdan muayyan darajada tayyor bo'lmasligi (kuyov yoki kelinning bir-biriga nomuvofiqligi) oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi, ularning kuchayib borishi, oxir-oqibatda oilaning buzilishiga olib kelishi haqida hayotiy misollar va diniy nuqtai nazardan asosli tahlillar yordamida keng yoritganligini ko'ramiz. Agar oilada shaxslararo munosabatlar madaniyati shakllangan bo'lsa, oila a'zolarining jamiyatda o'z o'rnini, qadrini topishga o'z istak va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa yoki shakllanmasa unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo'qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo'ladi. Oila a'zolari jamiyatda ham o'z o'rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. G.Roland esa o'z izlanishlarida yosh er-xotinar oilasidagi shaxslararo munosabatdan qoniqishlari uchun zarur kommunikativ sifatlarni ajratib ko'rsatgan: 1. Muloqotchanlik. 2. Oilada yuqori darajadagi o'zaro tushunish. 3. Er-xotinlarning jinsiy qoniqqanligi. 4. Emotsional qo'llab-quvvatlashning mavjudligi va ishonch. 5. "Uy"ni oiladagi hamjihatlikni belgilovchi maskan deb qarash. Yuqoridagi fikrlarimizga doir dalillarni uzoq chet el psixologlari olib borgan tadqiqotlar natijalaridan ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarida so'rov davrida 266 ta oilaviy muammolar bo'yicha shug'ullanadigan maslahatchilar (mutaxassislar) o'rganib ko'rilganda, ularning e'tirof etishicha, ulardan yordam so'rab murojaat qilgan har 10 ta oilaning 9 tasida o'zaro munosabatlarda anchagina qiyinchiliklar sodir bo'layotganligini aytib berganlar. Mazkur qiyinchiliklardan: fikr va maslamlarning mos kelmasligi - 86,6% ni, bolalar va ularning tarbiyasi bilan bog'liq muammolar - 45,7% ni, jinsiy munosabatlarga doir muammolar - 43,7% ni, moliyaviy yechimsiz muammolar - 37% ni, madaniy muammolar - 37,6% ni, tug'ishganlar bilan munosabat - 28,4% ni, er-xotin o'rtasidagi ishonchsizlik - 26,6% ni, xo'jalik ishlari bilan bog'liq masalalarda - 16,7% ni, ma'naviy-jismoniy haqoratlash - 15,6% ni tashkil etadi. Aynan shu kabi muammolarga doir, ya'ni er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning me'yorli kechishini amerikalik tadqiqotchilar V.Metyuza va K.Mixanovichlar o'rganganlar. Ular baxtli va baxtsiz oilalar (shartli ravishda) orasidagi o'ndan ortiq zarur farqlarni ko'rsatib o'tganlar. Bulardan oilada er-xotin munosabatlaridagi tengsizlik; bir-birini yaxshi tushunmaslik; jahl bilan gapirish; o'zini tahqirlanganligini sezish; e'tiborsizlik; umidsizlik; ishonchsizlik; janjallarni sodir etib turish; bir-birining fikriga qo'shilmasslik, e'tibor

talablik kabilar oilada baxtsizlik keltiruvchi muhim omillardir. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, ko'pchilik psixologlarning fikriga ko'ra, oilaviy baxt bo'lishi uchun nizoli oilalarda yetarlicha psixologik shart-sharoitlar mavjud emas. Bu esa yosh oilada sog'lom psixologik muhitni ta'minlaydigan er-xotin munosabatlariga xos sifat va fazilatlar yetarli shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – Moskva: Aspekt Press, 2001.
3. Kon I.S. Sotsiologiya lichnosti. – Moskva: Politizdat, 1987.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2012.
5. Gottman J.M. & Gottman J.S. (2015). 10 Principles for Doing Effective Couples Therapy. New York: W.W. Norton.
6. Lebow J. (2019). Couple and Family Therapy: An Integrative Map of the Territory (2nd ed.). Washington, DC: APA.
7. World Health Organization (2021). Strengthening family support systems: Global report. Geneva: WHO.